

AGROTEKNIK MELIORATSIYANING QISHLOQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

Abrorova Kumush

Jizzax Davlat Pedagogika universiteti st-tadqiqotchisi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.06.2022 yildagi N pq-278 yani "Jizzax viloyatida qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarni kengaytirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlarini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarorga binoan belgilangan chora tadbirlarni amaldagi natijalarini yuzaga chiqarish uchun bir qancha amaliy tadbirlar olib borimoqda. Ushbu qarorda Jizzax viloyatida mavjud yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, ichki imkoniyatlarni keng jalb etgan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish, istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, aholi bandligini ta'minlash, ularning daromadlari va turmush darajasini yanada yaxshilash hamda qulay agrobiznes muhitini yaratish maqsadida ko'rsatilgan quyidagi :

a) Jizzax viloyatida 2022-2026 yillarda 60 000 gektardan ortiq yer maydonlari o'zlashtiriladi va qayta foydalanishga kiritilib, ushbu maydonlarga sabzavot, poliz, moyli, dukkakli, ozuqa va dorivor ekinlar joylashtiriladi hamda bog' va uzumzorlar tashkil etiladi;

b) yangi o'zlashtiriladigan va qayta foydalanishga kiritiladigan yer maydonlarida: kooperatsiya usulida (urug' va ko'chatlarni yetkazish, agronom biriktirish, tayyor mahsulotni xarid qilish, saqlash va eksport qilish tizimini yaratish orqali) mahsulot yetishtirish yo'lga qo'yiladi; suv resurslaridan samarali foydalanish, mahsulot yetishtirish, qayta ishlash va eksport hajmini oshirish uchun qishloq xo'jaligi ekinlari yaxlit maydonlarga plantatsiya usulida joylashtiriladi;

v) yer maydonlarini yangidan o'zlashtirish va qayta foydalanishga kiritish mazkur yerlarda yer osti suvlarining holati bo'yicha Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasining tegishli xulosasi asosida amalga oshiriladi

muhim vazifalarni amalga oshirishda tuproq unumdorligini oshirish uni holatini yaxshilashchora tadbirlari eng ustuvor masala sifatida yuzaga chiqadi.Tuproq xolatini yaxshilash ning eng samarali usullaridan bir bu "Melioratsiya" bo'lib uning o'z navbatida tarmoqlarga asosan bir qancha turlari mavjud. Irrigatsiya eroziyasiga yo'l qo'ymaslik maqsadida yerni haydash va sug'orishda yo'nalishlarni o'zgartirib turish; sho'rlangan yerlarni o'zlashtirishda ko'p yillik o'simliklardan ko'proq foydalangan holda almashlab ekishni qo'llash; qumli tuproqlarga sideratlar ekish meloratsiyaning Agrotexnik turiga misol bo'ladi.

Agrotexnika *melioratsiyasi* – bunda agrotexnik tajribalarni o'tkazish yo'li bilan mikroiklim, tuproq xossasi va sizot suvlar tartibi yaxshilanadi. Bu tadbirlarga yer tekislash, ihotazorlar barpo qilish, chuqur shudgorlash, yumshatish, tilmalash, yerga o'z vaqtida yuqori sifatli ishlov berish, tuproq tarkibidagi zararli tuzlarni va kimyoviy moddalarni yuvish tadbirlari kiradi.

O'zbekiston Respublikasi yerlarining meliorativ holati Hozirgi vaqtda respubiikada sho'rlangan yerlar sug'oriladigan yer turlari umumiy maydonining 46 % ini, shu jumladan,



kuchsiz sho'rlangani –25 %, o'rtacha sho'rlangani - 15 % va kuchli sho'rlangani – 6 % dan ortiqrog'ini tashkil etadi. Oxirgi o'n yil ichida sug'oriladigan yerlarda sho'rlanish 120 ming gektarga, shu jumladan, kuchli sho'rlanish 43 ming gektarga oshgan. Tuz yig'ilishi va sho'rlanish jarayoni, ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida jadallashgan, bu yerlarda o'rtacha va kuchli sho'rlangan yerlarning umumiy maydonlari 43 % va 53 % ni tashkil etadi. Respublika bo'yicha sug'oriladigan yerlarning 28 % dan ko'prog'ida sizot suvlarining joylashish chuqurligi 1–2 metrni tashkil etadi. Bu yerlarda zaxlanish va botqoqlanish yuqori bo'lib, doimo zax qochirish tadbirlarini talab qiladi. O'zbekiston Respublikasi hududida eroziyaning barcha turlari, jumladan, tuproqning suv va irrigatsiya eroziyasi, yemiruvchi sel oqimlari va shamol eroziyasi hamda o'simliklarga shamolning zararli ta'siri kabilar mavjud. Bu jarayonlar joyning iqlimi va relyef sharoitlariga bevosita bog'liq.

Grotexnik usullar bilan o'simliklar uchun maqbul sharoit yaratish maqsadida tuproqning tabiiy sharoitini yaxshilashda biz maxsus meliorativ yer haydashlar, tuproqning havo tartibini yaxshilashda naychalar hosil qilishimiz yoki katta miqdorda bir marotaba o'g'it berish va boshqa agrotexnik ishlarni qilishimiz mumkin. Ularning asosiy farqi (agrotexnikadan) shuki, ular ko'pyillar davomida o'zining samarasini yo'qotmaydi. Agrotexnik melioratsiyada siderat ekinlarni ekish orqali sho'rlangan yerlardan tuzlar miqdorini kamaytirish va yangi yerlarni o'zlashtiramiz.

Bundan tashqari melioratsiyaning yana bir muhim omillaridan hisoblangan sho'rlangan tuproqlarni yuvish ham tuproq unumdorligini oshirishda va hosildorlikni sifatini yaxshilashda yetakchi o'rinlarda turadi. Yerlarning sho'rlanish darajasi va joyning tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda sho'r yuvish muddatlari, me'yori, necha marta yuvish zarurligini to'g'ri belgilashga alohida e'tibor berish muhim hisoblanadi.

Sho'rlanmagan yerga nisbatan kuchsiz sho'rlangan tuproqlarda hosildorlik 15-20 foizga, o'rta sho'rlanganda 30-50 foizga, kuchli sho'rlanganda 70-80 foizga kamayishi ko'p yillik ilmiy izlanishlarda isbotlangan. Shu bois, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash muhim omil bo'lib, ekinlar hosildorligini keskin oshishiga sharoit yaratadi.

Sho'rlangan yerlarda shudgorlash, yalpi va joriy yer tekislash ishlari o'z vaqtida sifatli o'tkazilgandan so'ng, tuproqning sho'rlanish darajasiga qarab kuchsiz sho'rlangan yerlar gektariga 2000-2500 kubometr, o'rtacha sho'rlangan yerlar gektariga 4000-4500 kubometr, kuchli sho'rlangan yerlar 6000-6500 kubometr me'yorda suv sarflab yuviladi. Lekin ushbu usulni qo'llanilishi uchun ko'p miqdorda chuchuk suv kerak bo'lishi va ortiqcha energiya va yer resurslaridan foydalanilganligi xalq orasida ommalshib ketishiga to'siq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda hozirgi rivojlangan texnika asrida yashayotgan har bir inson o'zining buguni, ertasi kelajadi uchun yer va yer resurslarini asrashi, undan oqilona foydalanishi hamda kelajak avlodga munosib o'rnak bo'lishi uchun ham harakat qilmog'i kerak. Tabiiy resurlar jumladan tuproq va uning tarkibiy qismlarini turli maishiy va ishlab chiqarish chiqindilaridan zararlanishini oldini olish, zararlangan tuproq yer maydonlarini



esa samarali usullardan biri Meloratsiya- qayta tiklash va yaxshilash kabi metodlarni bilish orqali ham amalga oshirish mumkinligini tushunmog'i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining N pq-278 yani "Jizzax viloyatida qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarni kengaytirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlarini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori. Toshkent. 2022 yil. 15 may.

2. U.Norqulov, X.Allanov "Qishloq xo'jaligi melioratsiyasi". Kasb -hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. (8-10- bet)

3. <https://fayllar.org/melioratsiya.html>

4. Sho'rlangan yerlarni yuvish hosildorlikning muhim omilidir. Usmon Norqulov, TDAU «Dehqonchilik va melioratsiya» kafedrası professorı, q.x.f. doktori. <https://www.agro.uz/shorlangan-yerlarni-yuvish-hosildorlik-omilidir/>

5. Ortiqova L.S. Qizilqum cho'l va adirlari yaylovlarining hosildorligini yaxshilash usullari va choralari. «O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi» jurnali. –Toshkent, 2019. – Maxsus son –B. 53-54. (06.00.00; №4).